

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDUVALIYEVA DILNOZA ISMOILOVNA**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV-  
METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Abduvaliyeva Dilnoza Ismoilovna**

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

**Абдувалиева Дилноза Исмаиловна**

Совершенствование методики развития коммуникативно-методических компетенций будущих учителей английского языка .....23

**Abduvalieva Dilnoza Ismailovna**

Improving the methodology for developing communicative and methodological competencies in future English language teachers.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....51

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDUVALIYEVA DILNOZA ISMOILOVNA**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV-  
METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4946 raqam bilan ro‘yhatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirova Fazilat Shukurovna**

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Sodiqova Iroda Ilhom qizi**

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu\_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu\_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_\_\_” da \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A.Abdullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, pedagogika  
fanlari doktori, professor

**N.M.Ahmedova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, pedagogika  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

**Sh.A.Atadjanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
seminar raisi, pedagogika  
fanlari doktori(DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim tizimini zamon talablariga mos ravishda isloh qilish, uni raqamlashtirish va ta'lim standartlarini yangilash sharoitida chet tillarini o'qitish sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining bilimlar sifati va ijodiy salohiyatini oshirishning optimal yo'llarini topish vazifasini qo'ymoqda. Oliy ta'limning ko'p pog'onali strukturasi o'qituvchi kasbiy kompetentsiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kommunikativ va metodik kompetensiya chet tilini samarali, madaniyatlararo muloqot darajasida bilish va o'qitishning zamonaviy usullari, texnologiyalari va yondashuvlarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirishni talab etmoqda. YUNESKO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) talablariga ko'ra, “talabalarining xorijiy til, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni takomillashtirish”<sup>1</sup>, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, bo'lajak mutaxassislarda o'z bilimlari tizimini rivojlantirish, fanlararo o'qishga yo'naltirish metodikalari amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida zamonaviy ta'lim amaliyotiga tayangan holda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan nafaqat tilni o'rgatish, balki madaniyatlararo muloqotda mediatorlik vazifasini o'tash, raqamli didaktikada kompetentli bo'lish, ta'lim oluvchilarning kredit-modul tizimida individual xususiyatlarini tanqidiy tushunish va uslubiy yondashuvlarni moslashtirishni talab qilishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining yagona xalqaro ta'lim makoniga kirayotgan sharoitlarida bo'lajak mutaxassislarining akademik mobilligini nazarda tutuvchi, xalqaro talablarga taqqoslanishi va tenglashtirilishini ta'minlaydigan kasbiy tayyorgarlikning mazmuni va tashkil etilishini takomillashtirish zarurligi chet tillari bo'yicha pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy talab bilan bog'liq.

So'nggi yillarda respublikamizda o'qituvchilik professiogrammasini namoyon qila oladigan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ-metodik tayyorlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni o'zaro hamkorlikka asoslangan ijodiy ta'lim muhitiga tatbiq qilish, elektron didaktik maydonlarda professionallikka mo'ljallangan samarali faoliyatni tashkil qilishning Umumevropa CEFR xalqaro baholash tizimi talablari vositasida o'qitish mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan. “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish”<sup>2</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativlik sohalaridagi muloqot sathlarini kengaytirish, muomala qilish ko'nikmalarini takomillashtirish, til to'siqlari-interferensiya holatlarini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ehtiyojlarni qondirishning didaktik imkoniyatlari kengaymoqda.

---

<sup>1</sup> IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light\\_.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy - ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ingliz tili tilni o‘qitishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari L.T.Axmedova, N.M.Ahmedova, Sh.A.Atadjanova, D.Abdullayeva, D.N.Baxriddinova, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, A.M.Musayeva, F.M.Rashidova, K.J.Riskulova, D.X.Saydazimova, T.Q.Sattarov, D.X.Xolmurodovlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ingliz tili o‘qitish tuzilishi va mazmuniy masalasiga S.N.Aliyev, R.G.Bulgakova, M.V.Buligina, B.B.Karabayev, O.A.Lukina, E.B.Soloveva, N.V.Xaritonova, O.M.Shiyan tomonidan tadqiq etilgan. Lingvodidaktik tadqiqotlarda chet tili o‘qituvchisining metodik kompetentligi yoki kommunikativ-metodik kompetentligi muammosining turli jihatlari O.S.Anisimova, I.L.Bim, N.D.Galskova, R.N.Gerasimova, S.I.Salomat, A.L.Berdichevskiy, N.Ye.Suzovleva, R.K.Minyar-Beloruhev, N.V.Yazikova, va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Xorijda o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha R.Carter, B.H.Douglas, A.R.Towi, S.Holden, C.Livingston, S.J.Savignon, A.Stoof, Ch.Velde tomonidan tadqiq etilgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari**

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo'lib, pedagogik tajriba-sinovda O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universitetining Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 1-2-bosqich bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan 448 nafari ishtirok etdilar.

**Tadqiqotning predmetini** bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Nazariy tahlil usullari: o'rganilayotgan muammoga oid psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi muammosi ustida ish olib borayotgan pedagoglarning nashrlarini tahlil qilish; emperik tadqiqot usullari: anketalar, testlar, suhbatlar, kuzatishlar; tajriba natijalarini qayta ishlashning statistik usullari; talabalarni kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bo'yicha ishlar eksperimental tadbirlarda olib borilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari mustaqil ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy muloqot usullarini bilish, ijodiy fikrlash, til minimumlari va kommunikantlarning nutqiy amallarini rivojlantiruvchi murakkab shaxsiy sifatlar majmuasini stilistik yaxlitlash, til materialini o'zlashtirishning qiyinchiliklarini o'rganish va qiyosiy tahlilini o'tkazish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli strukturaviy nutq, lisoniy, ijtimoiy-madaniy, diskursiv komponentlarini rivojlantirish, modulli o'qitish tamoyillari va amaliy yondashuvlarining didaktik birligini asoslash, o'quv ishining shakllari auditoriya mashg'ulotlari, o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish, talabaning mustaqil ishi, pedagogik amaliyoti ta'limiy integratsiyaga ko'ra kasbiy qiziqish dinamikligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi CLT, PST, PBL metodlariga ko'ra Mintimeter, Canva, Google Classroom vositalarining didaktik imkoniyatlari va

kompleks o'qitish g'oyalarini uyg'unlashtirish hamda so'zning semantikasini o'zlashtirish ko'nikmalarini faoliyatning reseptiv turiga moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi ijodiy jamoaviy muhitda samarali muloqot qilish davriyligini oshirish, muammoli vazifalarni hal qilishda o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirish hamda tanqidiy fikrlash va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarining zaifligi, refleksiya madaniyatining shakllanganligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:**

bakalavriatning Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish moduli "O'qish va yozuv amaliyoti" fani, ishchi o'quv dasturlari, o'quv - uslubiy majmua va modullari takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot ishining mazmuni sifatida "O'qish va yozuv amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** amalga oshirilgan yondashuvlar va tamoyillar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, analitik va eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik statistik metodlar yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarining muhim xususiyatlari ochib berilgan; bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va ilmiy asoslandi; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik so'rov usullarini joriy etishda; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishda; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydigan didaktik imkoniyatlarini eksperimental tekshirish. Ushbu ilmiy-tadqiqot materiallaridan bevosita chet til o'qituvchilarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar yozishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari mustaqil ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kasbiy muloqot usullarini bilish, ijodiy fikrlash, til minimumlari va kommunikantlarning nutqiy amallarini rivojlantiruvchi murakkab shaxsiy sifatlar majmuasini stilistik yaxlitlash, til materialini o‘zlashtirishning qiyinchiliklarini o‘rganish va qiyosiy tahlilini o‘tkazish asosida aniqlashtirishga oid takliflardan “O‘qish va yozuv amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 17-iyundagi 11-05-3925/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini tahlil etishga erishilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli strukturaviy nutq, lisoniy, ijtimoiy-madaniy, diskursiv komponentlarini rivojlantirish, modulli o‘qitish tamoyillari va amaliy yondashuvlarining didaktik birligini asoslash, o‘quv ishining shakllari auditoriya mashg‘ulotlari, o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ish, talabaning mustaqil ishi, pedagogik amaliyoti ta’limiy integratsiyaga ko‘ra kasbiy qiziqish dinamikligini barqaror ta’minlash asosida takomillashtirishga doir takliflar “O‘qish va yozuv amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 17-iyundagi 11-05-3925/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi yondashuvlar va tamoyillarni didaktik asoslash imkoni oshdi;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi CLT, PST, PBL metodlariga ko‘ra Mintimeter, Canva, Google Classroom vositalarining didaktik imkoniyatlari va kompleks o‘qitish g‘oyalarini uyg‘unlashtirish hamda so‘zning semantikasini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini faoliyatning reseptiv turiga moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflardan “O‘qish va yozuv amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 17-iyundagi 11-05-3925/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlanishining modeli takomillashtirilgan.

mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi ijodiy jamoaviy muhitda samarali muloqot qilish davriyligini oshirish, muammoli vazifalarni hal qilishda o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirish hamda tanqidiy fikrlash va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarining zaifligi, refleksiya madaniyatining shakllanganligini hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir ma’lumotlardan ““O‘qish va yozuv amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 17-iyundagi 11-05-3925/04-son dalolatnomasi).

Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning baholash mezonlari va innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish imkoni oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 142 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobda Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammolari o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ – metodik kompetensiyasini o'qitishning kredit-modulli texnologiyasi asosida rivojlantirishning didaktik asoslari va bosqichlari tahlil etilgan.

O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimi jahon standartlariga moslashish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida keng islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda muhandislik ta'limining ahamiyati ortib, bo'lajak mutaxassislarning nafaqat texnik bilimlarga, balki muloqot kompetensiyasiga ham ega bo'lishi muhim hisoblanmoqda.

Kompetensiyaviy, kommunikativ yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari so'nggi vaqtlarda pedagogika fanida keng tadqiq etilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqishga D.A.Ivanov, O.E.Lebedev, N.Kuzmina, A.V.Shepilov, D.I.Izarenkov, A.Xutorskiy, U.Inoyatov, N.A.Muslimov, O.Musurmonova, D.Ro'ziyeva, M.X.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev kabi olimlar katta hissa qo'shishgan.

Ushbu tadqiqot doirasida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda amaliy yo'nalish, faollik va shaxsiy yo'nalishni, chet tili fanining o'ziga xos xususiyatlarini, nutq faoliyati turlarini va uni talabalarga o'qitish xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetensiyaga asoslangan ta'lim mazmunida umumiy va individualni ajratish uchun

biz “kommunikatsiya”, “kompetensiya” va “metodik kompetensiya” tushunchalarini ajratamiz:

kommunikatsiya- ikki yoki undan ortiq sub'ektlar o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni bo'lib, unda axborot uzatiladi va idrok qilinadi. U nafaqat xabarlar almashinuvini, balki munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlashni, shuningdek, ishtirokchilarni tushunish va o'zaro idrok etishni ham o'z ichiga oladi.

kompetensiya - insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir;

metodik kompetensiya - o'qituvchining ta'lim maqsadlariga erishish uchun turli o'qitish usullari va vositalaridan unumli foydalanish qobiliyatidir. U o'qituvchiga ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, o'tkazish va tahlil qilish hamda uni talabalarning individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini o'z ichiga oladi.

Yangi texnologiyalar jadal amalga oshirilayotgan zamonaviy postindustrial jamiyatda xodimlarning ijtimoiy-kasbiy funksiyalari sezilarli darajada o'zgardi. Endi faqat bilimlar yig'indisini o'zlashtirishga va malakalarni egallashga intilish/oriyentatsiya ishlab chiqarish va muassasalarning ehtiyojlari uchun aniq yetarli emas. D.A.Ivanov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "kompetentlikka asoslangan yondashuv - ommaviy maktabni mehnat bozori ehtiyojlariga bir-biriga muvofiqlashtirishga urinishdir ... bu ta'lim natijasiga urg'u beradigan yondashuv bo'lib, bunda natija o'rganilgan ma'lumotlar yig'indisi emas, balki insonning turli vaziyatlarda harakat/amal qila olish qobiliyati hisoblanadi". O.E.Lebedevning fikriga ko'ra, kompetentlikka asoslangan yondashuv - ta'lim maqsadlarini aniqlash, ta'lim mazmunini tanlab olish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari majmuidir. Shunday qilib, ta'lim tizimi bilimlar paradigmasidan kompetentlik paradimasiga o'tayotganligi, ular bir-biriga zid emas, balki bir-biri bilan to'ldiruvchi munosabatlarida, degan xulosaga kelish mumkin.


MDH olimlarining tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiya tilga o'qitishning umumiy maqsadini ifodalaydi va ta'lim jarayonining asosiy mazmunini belgilaydi. Masalan, olim A.V.Shepilovanning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiya hali ham ikki ma'noda tushuniladi - tor ma'noda, nutq muloqotining malakasi sifatida va, kompetensiyaning boshqa barcha jihatlari kiritiladigan keng ma'noda tushuniladi. Olim D.I.Izarenkovning nuqtayi nazariga quyidagicha: "Kommunikativ kompetensiya - insonning tabiiy kommunikatsiya yoki maxsus tashkil etilgan o'qitish jarayonida olingan nutq shaxsining maxsus sifati bo'lgan nutq faoliyatining bir yoki bir necha turida muloqot qilish qobiliyatidir". I.A.Zimnyayaning fikriga ko'ra, psixologik nuqtayi nazardan, kommunikativ kompetensiya insonning muloqotning pragmatik parametrlarini mamlakatshunoslik va lingvo-mamlakatshunoslik kompetensiyasining bir qismi sifatida hisoblash bilan o'z nutq faoliyatini muloqot vaziyatiga tegishli/adekvat tarzda uning mahsuldor va retseptiv ko'rinishlarida tashkil qilish qobiliyatidir.

Professor J.J.Jalolovning ilmiy mulohazalariga binoan O‘zbekiston sharoitida ayni paytda oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ–kognitiv metodga asoslanilmoqda. N.M.Ahmedova, barcha kompetensiyalar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida bir xil ahamiyatga ega, deb hisoblaydi, va shu bilan birga, u kommunikativ kompetensiyani alohida ajratib ko‘rsatadi, chunki olimaning fikricha, aynan rivojlantirilgan muloqot qila olish malakasi ko‘p jihatdan boshqa kompetensiyalarning shakllantiirishni belgilaydi. D.Ruzmetova fikricha, insonning nutq faoliyati kengroq bir tushuncha, ya’ni inson kommunikativ faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir deb ta’kidlsa, D.R.Pulatova kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi ingliz tilida muloqot qilishdagi nutq ko‘nikmalarini egallash, va talabalariga ingliz tilini intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitishning shart-sharoitlarini tatqiq qilgan.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchi tilni egallaganligi darajasi turlicha bo‘lgan talaba bilan xorijiy tilda muloqot qilishi va muloqot davomida o‘qitish faoliyatini amalga oshirishi sababli, u nafaqat kommunikativ kompetensiyani, balki kommunikativ-metodik yoki kasbiy-kommunikativ kompetensiyani ham egallagan bo‘lishi kerak, ya’ni, tilni shunday yuqori darajada egallagan bo‘lishi kerakki, u daraja unga o‘z nutqini o‘qitish sharoitlariga moslashtirish, yoki pedagogik maqsaddan bog‘liq ravishda o‘zgartira olish imkonini bersin.

A.V.Xodikina metodik kompetensiya xorijiy tillar sohasidagi kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri ekan degan xulosaga keladi. Insonning murakkab xarakteristikasini ifodalar ekan, metodik kompetensiya fundamental va o‘ziga xos bilimlar, xilma-xil malakalar, shaxsiy va kasbiy sifatlarni o‘z ichiga oladi va boshqa kompetensiyalar bilan bog‘langan. Ya’ni, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lisoniy/lingvistik, pedagogik va psixologik bilimlar va malakalarga asoslangan va majburiy kasbiy yo‘nalishga ega bo‘lgan boshqa barcha fanlar tomonidan mustahkamlangan/qo‘llab-quvvatlangan metodik mahorati uni kasbga tayyorlashning o‘zagi, tizimini shakllantiruvchi omilidir degan nazariyani ilgari surgan.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid didaktik imkoniyatlar tizimli, integrativ va reflektiv yondashuvlar asosida tahlil qilinib, mustaqil til ko‘nikmalarining rivojlanishi, kasbiy muloqot uslublarning egallanishi, ijodiy tafakkur va kasbiy faoliyatga emotsional-motivatsion munosabat kabi shaxsiy-ta’limiy omillar majmuasi orqali aniqlashtirildi. Ushbu kompetensiyalar til minimumlari va kommunikantlarning nutqiy amallarini faol o‘zlashtirish, shuningdek, til materialini egallashda uchraydigan psixolingvistik va metodik murakkabliklarni aniqlash va ularni qiyosiy-pedagogik tahlil qilish asosida shakllanadi. Shu bilan birga, kompetensiyalarning samarali rivojlanishini ta’minlashda modulli o‘quv dizayni va moslashuvchan didaktik muhitdan foydalanish ustuvor yo‘nalish sifatida asoslab berilgan. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonda individual rivojlanishga yo‘naltirilgan, reflektiv va kommunikativ faoliyatga asoslangan metodik asoslarni takomillashtirish imkonini beradi (1- rasm).



**1-rasm. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid didaktik imkoniyatlarni aniqlash jarayoni**

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish va rivojlantirish bugungi til ta‘limi jarayonida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda mustaqil til ko‘nikmalari, kasbiy muloqot uslublarini egallash, ijodiy fikrlash va emotsional-motivatsion yondashuvlar o‘zaro integratsiyalashgan holda amal qiladi. Til materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni tahlil qilish orqali shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv va modulli ta‘lim asosidagi metodik yondashuvlar samarali pedagogik strategiya sifatida asoslanmoqda. Shu bois, kommunikativ-metodik kompetensiyani rivojlantirish o‘qituvchining nafaqat til bilimi, balki metodik sezgirligi, kreativ tafakkuri va kasbiy refleksiyasini bir butun holatda rivojlantirishni talab etadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, bu jarayonning samaradorligi talabalarning til faoliyatidagi mustaqilligi, kasbiy muloqotga tayyorligi va metodik tafakkur darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, bu kompetensiyalarni rivojlantirishda turli darajadagi didaktik, metodik va psixologik qiyinchiliklar yuzaga chiqadi. Mazkur muammolarni yengishda kommunikativ vazifalarga yo'naltirilgan modulli ta'lim, refleksiv yondashuv va innovatsion texnologiyalar asosidagi didaktik imkoniyatlar muhim o'rin egallaydi. Shu tariqa, mavjud qiyinchiliklarni chuqur tahlil qilish va ularga nisbatan samarali imkoniyatlarni aniqlash bu kompetensiyalarni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

**1-jadval**

**Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda uchraydigan qiyinchiliklar**

<b>Qiyinchilik turi</b>	<b>Tavsifi</b>
Didaktik-mavzuli	Til materiali va nutqiy topshiriqlarni kommunikativ maqsadga mos ravishda integratsiyalashda muammolar; modul asosidagi o'qitishning metodik murakkabligi.
Metodik-texnologik	Innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashdagi metodik bilim va raqamli savodxonlik yetishmovchiligi.
Kommunikativ	Kasbiy muloqot vaziyatlarining sun'iyli va talabalar orasida muloqotga kirishishdagi psixologik to'siqlar.
Refleksiv va ijodiy	Tanqidiy fikrlash va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarining zaifligi, refleksiya madaniyatining shakllanmaganligi.
Tashkiliy-psixologik	Talaba markazli yondashuvga moslasha olmaslik, faollik va ichki motivatsiya yetishmovchiligi.

Kommunikativ-metodik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi mavjud qiyinchiliklar ta'lim jarayonini yangicha metodik yondashuvlar asosida qayta tashkil etishni talab etadi. Mazkur murakkabliklarni yengish uchun ta'lim jarayonini modul asosida rejalashtirish, kommunikativ vazifalarga yo'naltirilgan topshiriqlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, hamda refleksiv va ijodiy faoliyatlarni tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Shuningdek, metodik tayyorgarlikni chuqurlashtirish, talaba markazli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish orqali talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini real nutqiy kontekstda qo'llay olishga tayyorlanadi. Bu esa kommunikativ-metodik kompetensiyaning samarali rivojlanishi va ta'lim sifatining izchil oshishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, har qanday oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasi ta'lim jarayonining samaradorligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan, o'quv dasturini shaxsga-yo'naltirilgan modulli turdagi ta'lim texnologiyasi va reytingli nazorat tizimi asosida o'rganilayotgan fanning asosiy

o'quv-metodik majmuasining tarkibiy qismlari sifatida takomillashtirish zarurati oshadi. Kredit-modulli texnologiyaning oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilishi zamonaviy talablarga javob beradi, chunki u respublika oliy ta'lim muassasalarining yagona xalqaro ta'lim makoniga kirishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonini modulli-reytingli tashkil etish asosida joriy qilinayotgan ushbu texnologiya pedagogika oliy ta'lim muassasalarining uzluksiz ko'p bosqichli ta'lim tizimida talabalarning xorijiy tildagi kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirishning samarali shartlaridan biri, ekanligi bilan ifodalanadi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyani takomillashtirishning metodik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyani takomillashtirishning mazmuni va modeli tahlili, kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi o'rganilgan.

O'zbekistonda Davlat Ta'lim Standartida belgilab berilgan “Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar” 2013 – 2014 o'quv yilidan boshlab bosqichma - bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi jadal rivojlanayotgan ijtimoiy hayotda kundalik, ilmiy va ijtimoiy sohalarda xalqaro miqyosda erkin faoliyat olib borishlari uchun chet tillarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdan iboratdir. Unda chet tili bo'yicha barcha darajalar uchun bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka talablari hamda ta'lim mazmuni belgilab berilgan. Asos qilib esa umumevropa xalqaro standarti darajalari, ya'ni CEFR – chet tillar bo'yicha umumevropa tavsiyalari mazmuni, chet tillarni integrativ yondashuv asosida o'rganishda xalqaro standartlarda ko'zda tutilgan 4 ta ko'nikmaga –chet tilida o'qish, yozish, eshitish va gapirish darajalari olingan.

Davlat Ta'lim Standarti talablariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari ixtisosligi chet tili bo'lgan bakalavr hamda magistratura bosqichi bitiruvchilari S1 daraja uchun ta'lim mazmuni quyidagi yo'nalishlarda belgilangan:

– global muammolarga oid mavzular (masalan, zamonaviy texnologiyalar va ularning insoniyatga ta'siri, globallashuv, migratsiya, ekologiya, terrorizm, ishsizlik va h.k.);

– ijtimoiy mavzular (masalan, tevarak atrof bilan ijtimoiy munosabatlar, jins masalalari, ijtimoiy tenglik, madaniy qadriyatlar, tolerantlik va h.k.);

– kasbga oid mavzular (masalan, kommunikativ faoliyat turlari, malaka oshirish, kasb etikasi va h.k.);

– ta'limga oid mavzular (uzluksiz ta'lim, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, magistratura bo'limida o'qish va h.k.);

– ilmiy tadqiqotga oid mavzular (xalqaro loyihalar, ilmiy tadqiqot etikasi, intellektual boylik, rahbarlik va boshqaruv, mualliflik huquqi).

Tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, chet tillarini o'qitish bo'yicha DTS talablaridan kelib chiqqan holda mazmunan mukammal yaratilgan fan dasturlari hamda ishchi o'quv dasturlarining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati nihoyatda kattadir.

Shu nuqtayi nazardan biz ta'lim yo'nalishi: 60110900- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bo'yicha bakalavriyat ta'lim bosqichida o'qitiladigan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari katta bo'lgan asosiy o'rganilayotgan til bo'yicha "O'qish va yozish amaliyoti" va "Chet tilda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish" fanlarini tajriba-sinov uchun tanladik va uning o'qish ko'nikmasi imkoniyatlarini aniqladik.

"O'qish va yozuv amaliyoti" va "Chet tilda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish" fanini o'zlashtirgan talaba o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda yozma ravishda aniq va mantiqiy bayon etishi matnni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qish va yozuv amaliyoti fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va talabalarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Biz tadqiqotlar davomida ushbu modul mazmuniga quyidagi yo'nalishlarni ham tavsiya etdik:

akademik o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishi. (annotatsiya va referat o'qish: asosiy g'oyani aniqlash, mavzuli maqolalarni tahliliy o'qish (scanning vs skimming strategiyalari), akademik matnlarda kontekst bo'yicha noma'lum so'zlarni aniqlash, perefraz qilish va qisqacha mazmun chiqarish strategiyalari, fakt va fikrni ajrata olish (critical reading));

madaniyatlararo kontekstda o'qish. (madaniyatlararo farqlarni yorituvchi matnlarni o'qish va tahlil qilish, adabiy matnlarda madaniy kontekstni tushunish, chet tillarida yozilgan afsonalar, ertaklar, hikoyalarni tahlil qilish, real hayotiy vaziyatlar asosidagi matnlarni o'qish (travel blogs, interviews, cultural reports));

strategik va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. (o'quv strategiyalarini o'rgatish: Cornell usuli, SQ3R (Survey-Question-Read-Recite-Review), onlayn platformalarda resurslardan foydalanish (BBC Learning, Newsela, LingQ), o'qilgan matnga nisbatan tanqidiy savollar tuzish va muhokama qilish;

ijodiy va tanqidiy o'qish (Creative & Critical Reading) (hikoya tuzilishini aniqlash va o'z versiyasini yaratish, matnlarda yashirin ma'no va muallif pozitsiyasini aniqlash, o'qilgan asar asosida muhokama yoki munozara tashkil etish).

Ingliz tilini o'qitishga ixtisoslashgan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kommunikativ-metodik kompetensiyaning rivojlanishi kasbiy tayyorgarlikning muhim mezoni hisoblanadi. Ushbu kompetensiya nafaqat til vositasida samarali muloqot qilishni, balki o'quv faoliyatini metodik asosda loyihalash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini ham qamrab oladi. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-geografik, demografik, tarixiy-madaniy va xalqaro munosabatlarga oid bilimlarini chuqurlashtirish orqali: til o'rgatishda madaniyatlararo muloqotni yoritish imkoniyati kengayadi, ijtimoiy-madaniy kontekstda muloqot qilish kompetensiyasi shakllanadi, reflektiv va analitik fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi, turli millatlar madaniyatiga nisbatan hurmat, tolerantlik va empatiya kabi kasbiy-etnik qadriyatlar shakllanadi. Bu jarayonda talabalar: ijtimoiy-madaniy va tarixiy

kontekstlarni tahlil qilish, mazmun asosida kommunikativ vazifalarni ishlab chiqish, muloqot mazmunini madaniy asosda loyihalash, talabalar bilan mazmunli va madaniyatga asoslangan til o'rgatish faoliyatini tashkil qilishga metodik jihatdan tayyorlanadilar.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli strukturaviy nutq, lisoniy, ijtimoiy-madaniy, diskursiv komponentlarini rivojlantirish, modulli o'qitish tamoyillari va amaliy yondashuvlarining didaktik birligini asoslash, o'quv ishining shakllari auditoriya mashg'ulotlari, o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish (O'RMI), talabaning mustaqil ishi (TMI), pedagogik amaliyoti ta'limiy integratsiyaga ko'ra kasbiy qiziqish, mutaxassisning tizimli fikrlashi, o'zini professional shaxs sifatida anglash dinamikligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, umuman olganda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini maqsadga yo'naltirilgan holda xususan, xorijiy tillar sohasida tayyorlash bo'yicha o'qitish sifati va samaradorligini oshirish mutaxassisning kommunikativ-metodik kompetensiyasini ushbu tadqiqotning oldin qo'yilgan g'oyasiga muvofiq rivojlantirishga yo'naltirilgan modelini(2-rasm) avvaldan ishlab chiqmasdan tasavvur etib bo'lmaydi.


